

**Mirzaxmedov Muhammadjon Fazliddin-o'g'li**

*Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 7-o'rta ta'lim maktabining biologiya fani o'qituvchisi*

Asalari yetti xazinaning biri – deydi dono xalqimiz. Bu haq gap! Asalarilar ko'plab shifobahsh asal, mum, propolis, gulchangi to'plashi bilan ayni paytda qishloq xo'jalik ekinlarini, ayniqsa paxtachilikni rivojlantirishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ham u qishloq xo'jaligida serdaromad sohalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda asalarichilikka bo'lgan talab va uning shifobaxsh maxsuloti bo'lgan asal yetishtirishga oqilona ixtisoslashuvini saqlab qolish, mustaqil respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davrida kun sayin iqtisodiyotimizning asosini tashkil etadi. Respublikamiz asalarichilari oldiga har bir asalari oilasining mahsulorligini oshirish hisobiga asal yetishtirishni ko'paytirish qat'iy vazifasi qo'yilgan. Buning uchun har bir asalarichidan va har bir rahbardan, asalari oilasini zooveterinariya qoidalari asosida parvarishlab, asalarilarni tez-tez serosal o'simliklar o'sadigan joylarga ko'chirib turishni talab qiladi. Asalarilarning foydali va serdaromad tomonlari shundaki, ular o'simlik gullarini chetdan changlatish yo'li bilan ekinlar hosildorligini 10-60 % gacha oshirishga sabab bo'ladi. Respublikamiz sharoitida esa g'o'za, beda va dukkakli o'simliklar, ozuqabop hamda poliz ekinlari maydonlari kengayib borishi tufayli, qishloq xo'jalik ekinlarini changlatishda asalarilarning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda [1].

Asalarilarning ana shunday beminnat xizmatlarini va u dehqonlarning

qanotli yordamchisi ekanligini hisobga olib, hukumatimiz keyinigi yillarda asalarichilikni respublikada yanada rivojantirish to'g'risida ko'pgina qarorlar qabul qildi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16 oktyabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi – 3327 sonli qarori qabul qilindi. Bu qaror yordamida respublikamizda asalarichilik bir muncha rivojlandi, uning moddiy-texnika ta'minoti, kadrlar bilan ta'minlash ishlari mustahkamlandi.

Respublikamizda sotsial va iqtisodiy rivojlanishning 2026 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarida ham asalarichilikni jadal usulda rivojlanish mo'ljallangan. Mamlakat oziq-ovqat dasturini amalga oshirishda ham asalarichilik katta ahamiyatga egadir [2].

Respublikada asalarichilikning rivojlanish taraqqiyoti va tarixi, istiqlol mafkurasi asosida, yaxlit bir tizim sifatida o'rganishga e'tibor qaratildi. Asalarichilik qishloq xo'jaligining tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan tarmogi bo'lib, uning o'zi ayni paytda qator mustaqil ilmiy bo'limlarga bo'linganligi e'tiborga molik.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari va kasb-xunar kollejlarida asalarichilik bo'yicha tuzilgan darslik shu paytgacha yo'qligi ham, bu sohani talabalarga puxta o'rganishni qiyinlashtirmoqda. Asalarilarning tuzilishidagi o'ziga xos belgilarini va ko'chma asalarichilikda ular o'zgacha muhitga tez moslanishi bilan odamlarga va qishloq xo'jaligi uchun qanchalik katta ahamiyatga pega ekanligini o'rganish muhimdir. Asalarilarning biologik xususiyatlarini chuqurroq o'rganish, bu albatta selektsiya – naslchilik ishlarida,

ularning zot sifatida xo'jalik foydali xususiyatlarini saqlab qolish va undan keng foydalanish imkoniyatini beradi [3].

Asalarilarga bo'lgan qiziqish qadim zamonlardan boshlangan. Ularga dastlab uni asaliga, shirin yegulik sifatida qaralgan bo'lsa, keyinchalik chorvachilik va dehqonchilik ishlari rivojlangach, asalarilarga bo'lgan qiziqish, yanada ortib borgan. Shunda, ular foydali hasharotlar borligiga ishonch hosil qilganlar, natijada, odamlar asalarilarning foydasini tushunib, ularni xonakilashtirganlar, ya'ni asalarilarni maxsus loy, qamishdan to'qilgan va daraxt g'o'lalari ichini o'yib yasalgan uyalarga ko'chirganlar.

Ma'lum bo'lishicha, asalarichilik dastavval faqatgina Osiyo, Afrika, Yevropada tarqalgan. Taraqqiyotning va fanning boshqa sohalari kabi asalarichilik ham XVI asrdan boshlab keskin rivojlanma boshlangan.

Respublikamizning ajoyib tabiatи va iqlim sharoiti, qishloq xo'jaligining barcha sohalari kabi asalarichilikning ham muvoffaqiyatli rivojlantirish imkonini beradi. Cheksiz maydonlardagi o'tloqlarimiz, rang-barang adiru qirlarimiz, bepoyon paxtazorlarimiz, keng maydonlarni ishg'ol etgan bog' va gulzorlarimiz, asalarilar uchun ajoyib ozuqa manbai hisoblanadi. Shunga qaramay, hozirgi vaqtida xalq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish salmog'i, axolining kundan-kunga ortib borayotgan talablariga yetarli darajada javob bera olmaydi.

Asalarichilikning qishloq xo'jalik ekinlari hosilini oshirishdagi ahamiyati yanada katta. Ma'lumki, dunyodagi 80% gulli o'simliklar, chetdan changlanadilar. Ana shu o'simliklarning chetdan changlanishida, asalarilar asosiy rol o'ynaydi, chunki boshqa xil changlatuvchi hasharotlar soni juda kam va ularni kerakli paytda ekinlarni changlantirishga ko'chirib bo'lmasligi tufayli, asalarilar bunga juda mos keladi. Asalarilardan xohlagan paytda, kerakli o'simliklarni chetdan changlantirishda foydalanish mumkin.

Asalarilar tufayli chetdan changlanadigan beda va dukkakli o'simliklar hosili 35-40%, kungaboqar 45-50%, mevali daraxtlar 50-60% va poliz ekinlari esa 100% gacha oshganligi aniqlangan [4].

Asalarilarning, ayniqsa g'o'zalarning chetdan changlanishida va ularning hosildorligining oshirishdagi ahamiyati yanada katta. Tajribalardan shular aniqlanganki, asalarilar yordamida changlangan g'o'za maydonlarining hosili 10-23% gacha ortganligi va ularning ko'sagi yirik bo'lgan va pishib yetilish tezlashganligi kuzatilgan. Respublikamizdagи asalarichilar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, paxta maydonlariga joylashtirilgan har bir asalari oilasidan 30-40 kg gacha asal olinmoqda. Demak paxtachilikda hosildorlikni oshirish uchun har bir paxta dalasida asalari oilasini joylashtirish kerak bo'ladi. Asalarilar qancha ko'p bo'lsa, undan olinadigan asal ham va qishloq xo'jalik ekinlari hosili ham shuncha ko'p bo'ladi. Bulardan asalarichilikning har tomonlama foydali va daromadli ekanligi ko'rinish turibdi. Shunday ekan, bu sohada yetarli ahamiyat berish va uni har tomonlama rivojlantirish lozim. Respublikada asalarichilikni sanoat asosidagi ishlab chiqarishga o'tkazish bilan, asalarichilikni boshqarishning yangi oqilona usullarini ishlab chiqish, asalarichilikda og'ir qo'l mehnatlarini mexanizatsiyalash katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun asalari oilasini rejali ko'paytirish, erta bahordan cho'l va tog' etaklarida ko'chirish va serosal o'simliklardan oqilona foydalanish, ko'chma asalarichilikni rejali texnologiyalar asosida, ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir

Asalarichilik maxsulotlarini ma'lum darajada ko'paytirishga qaratilgan kompleks tadbirlarning ishlab chiqilishi, asalarichilik xo'jaliklarida amalga oshirilayotgan tadbirlarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadigan ko'chma asalarichilik, alohida ahamiyatga ega. Respublikada asalari oilasini rivojlantirish maqsadida, asal yetishtirishning tezkor texnologiyasini ishlab chiqish va joriy etish, fan va texnika yutuqlarini, ilg'or tajribalarni asalarichilikka joriy etishni davr taqozo etmoqda. Asalarilarning yangi zotlarini yaratish va naslini yaxshilash borasida, ish olib borish ham muhim masalalardandir. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, respublikamizda yetishtirilayotgan ona asalarilarning ko'pchiligi kam mahsul bo'lib qolmoqda. Asalarichilar oldida turgan vazifalardan yana biri, asalari kasallikkleri va zararkunandalar bilan doimiy kurash olib borishdir. Hozirgi kungacha juda havfli yuqumli kasallik bo'lgan Amerika va Yevropa chirishi, varroatoz kasallikkleri, mum parvonasini yo'qotish masalalari to'la-to'kis hal qilinmagan. Boshqa yirtqich xasharotlar va qushlarga qarshi kurashning amaliy tadbirlari ishlab chiqilmagan, asalarilarning turli kasallikklarini profilaktika qilish va sanitariya –veterinariya nazorati to'la yo'lga qo'yilmagan. Asalarichilik fermer xo'jaliklari faqatgina bitta asal hosiliga qarab turmasliklari kerak. Buning uchun erta bahordan ona asalari va paketli asalarilar yetishtirib, sotib turishlari kerak. Bundan tashqari asalari suti va zahri ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir. Chunki, hozirgi kunda 1 gr asalari zahri jahon bozorida 100 AQSH dollariga va 1 kg asalari suti esa 1000 AQSH dollariga tengdir va bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishda, xo'jalik katta iqtisodiy foyda ko'radi.

Propolis esa halq tabobatida juda ko'p kasallikkarni, jumladan, undan turli hil malhamlar, spirtli eritmalar, ekstraktlar tayyorlab, davolashda ishlatiladi. Propolisdan turli teri, tish kasallikkarni davolashda keng foydalaniladi. Asalari mumi o'zining shifobahshlik xususiyatlari bilan birga, elektr va radiotexnikada tengi yo'q, aniq o'lchaydigan asboblarni izolatsiya qilish materialidir. Quyuvchilik ishida mum aniq detallar va san'at buyumlarini quyish uchun ishlatiladi. Ayni vaqtda asalari mumi halq xo'jaligining juda ko'p sohalarida, chunonchi, aviatsiya, avtomobil, oyna, ko'n, qog'oz, to'qimachilik sanoatlarida ham keng ishlatiladi.

Asalarichilik mahsulotlaridan kosmetikada ham keng foydalanadilar. Keyingi o'n yilliklarda ko'pgina mamlakatlarda tabiat in'omlari bo'lgan ba'zi bir mahsulotlarning tarkibidagi biologik faol moddalarning shifobaxshlik xususiyatlariga alohida e'tibor berilmoqda. Huddi shunday maqsadda, asalarichilik mahsulotlari tarkibidagi biologik faol moddalaridan kosmetikada har hil dori-darmonlar tayyorlashda ajoyib manbaa bo'lib xizmat qilishini aniqladilar. SHu tariqa asalarichilik mahsulotlaridan har hil kremlar, shampunlar, tish pastalari,sovunlar, lab bo'yoqlar tayyorlash keng yo'lga qo'yilgan.

Asaldan oziq-ovqat sanoatida keng foydalanadilar. Xususan, asaldan qandolatchilikda har hil konfetlar, holvalar, pechenyelar, tortlar, kekslar, muzqaymoqlar, bodroqlar tayyorlashda, shuningdek, asalli salqin va chanqov bosti ichimliklar tayyorlashda keng foydalanadilar. Bular inson organizmidagi ko'pgina xastaliklarni ham tezda davolaydi.

Asalarichilik mahsulotlaridan vinochilik sanoatida ham keng foydalanib kelinmoqda. Odatda vino uzum va boshqa xil mevaladan tayyorlanadi. Lekin asaldan tayyorlangan vinolar, o'zining ta'mi va xo'shbo'yligi bilan, hammani o'ziga maftun etadi. Asalarichilik

mahsulotlari bo'lgan asal va propolisdan tayyorlangan har xil dorilar veterinariyada chorva mollarida uchraydigan ko'pgina kasalliklarni davolashda mohirona ishlatib kelinmoqda.

Endilikda mustaqil respublikamiz asalarichilari oldida, mavjud qiyinchiliklarni yengib, asalarichilikka keng yo'l ochib berish va uni rivojlantirishda keng qamrovli dastur tayyorlab, ishlab chiqarishga joriy etishdir.

**REFERENCES:**

1. Крахотин Н.Ф. Ўзбекистонда асаларичилик. Тошкент. “Мехнат”. 1991.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 oktyabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi – 3327 sonli qarori. 3. Isamuhamedov A.I. Nikadamboev X.K. Asalarichilikni rivojlantirish asoslari. Toshkent. «Sharq» nashriyoti, 2013.
4. Тураев О.С. Технология содержание пчелиных семей в хлопкосиющей зон Бухарского области. Автореферат канд. диссертации. 2006.